



PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O'QUVCHILARDA O'QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK TALABLARI

Iminjanova Durdona Abduqaxxarovna

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini shakllantirishning metodik talablari, PIRLS tadqiqotida anglab o'qishni baholashga yo'naltirilgan topshiriqlarning taqsimlanish foizlari, O'quvchilarning o'qishni o'rganishida yuzaga keladigan muammolar va ularni amaliyotga joriy etish masalalari haqida ilmiy tahlillar va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'z: matni o'qish, tushunish, milliy ta'lim, PIRLS dasturi, mashq, ijodiy topshiriq

Аннотация. В статье изложены методические требования к формированию читательской грамотности у младших школьников на основе международной оценочной программы PIRLS, процент распределения заданий, направленных на оценку осознанного чтения в исследовании PIRLS, научный анализ и рекомендации по проблемам, возникающим при обучении учащихся чтению, и вопросам их внедрения в практику.

Ключевое Слово: чтение текста, понимание, национальное образование, программа PIRLS, упражнение, творческое задание

Annotation. The article describes the methodological requirements for the formation of Reading Literacy in primary school students based on the PIRLS International Assessment Program, the percentage of distribution of tasks aimed at assessing comprehension and reading in the PIRLS study, scientific analyzes and



recommendations on problems arising in student literacy and their implementation in practice.

Keywords: text reading, understanding, National Education, PIRLS program, exercise, creative assignment.

KIRISH

Mamlakatimiz ta'limiga qo'yilayotgan talablar xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash, monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Yosh avlodning intellektual faolligini shakllantirish nafaqat muayyan bir mamlakat, balki xalqaro hamjamiyat uchun ham muhim masalaga aylandi. Shuning uchun ta'lim sifati, ta'lim sifatini baholash kabi masalalar bilan ko'pgina xalqaro tashkilotlar davlatlarda ta'lim sohasida baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari amaliyotga tatbiq etilgan.

PIRLS xalqaro tadqiqotining maqsadi turli xil ta'lim tizimidagi davlatlarda boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va uni tushunish darajasi, "ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishning sama-radorligi juda ko'p omillar bilan chambarchas bog'langan. Shubhasiz, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va o'quv imkoniyatlarini hisobga olish, ona tili va o'qish savodxonligi ta'limining mazmuni va maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlar tizimi hamda metodlarini to'g'ri belgilash, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida pedagogik ham-korlikning o'rnatilishi, darsda ishga solinadigan vositalarning maqsadga muvofiq tan-lanishi singarilarning barchasi samaradorlikni ta'minlash bilan aloqadordir.

Ana shu omillar ichida ona tili va o'qish savodxonligi ta'limning mazmuni muhim va yetakchi omil sanaladi. Chunki samaradorlik avvalo o'quvchilarga "Nimani o'qit-ish?" masalasi bilan chambarchas bog'liq. Ona tili va o'qish savodxonligi ta'limidan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga



muvoqiq ke-ladigan malaka va ko'nikmalar tizimi to'g'ri belgilansagina "Qanday o'qitishi kerak?" degan savolga javob topish mumkin. Demak, samaradorlik avvalo ana shu ikki omil bilan bevosita aloqadordir. "Nimani o'qitish?" va "Qanday o'qitish kerak?" bir jarayonning ildi qirrasidir. Bular shu darajada bir-biri bilan bog'langanki, biri ikkinchisiz hech qanday samara ko'rsatmaydi.

Ona tili va o'qish savodxonligi ta'limning samaradorligi, birinchidan, ta'lim mazmuni, ya'ni shu fandan o'quvchilarga beriladigan zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar tizimi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quvchilarning ona tili va o'qish savodxonligini o'rganishga bo'lgan qiziqishi, bilish ehtiyojini yuzaga keltiradigan vositalar bilan cham-barchas bog'langan. Ona tili va o'qish savodxonligi ta'limning samaradorligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'qitish metodini to'g'ri tanlanishidir. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'qituvchi ko'proq o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarga murojaat qiladi. Chunki o'quv materialini tushuntirib berish yoki o'quvchi duch keladigan tushuncha, ta'rif va qoidalar atrofida suhbat o'tkazish bilan o'rgatib bo'lmaydi. Ona tili va o'qish savodxonligi mashg'ulotlarida o'quvchi ta'lim jarayonining sub'ekti ya'ni faol ishlovchisiga aylanib, har bir o'quv topshirig'ini aqliy faoliyat "chig'irig'i"dan o'tkazgan taqdirdagina o'quv materiallarni o'zlashtirish jarayoni ancha yengil kechadi va dars mashg'ulotlarining samaradorligi ta'minlanadi. O'qitishning amaliy metodlariga tayan-gan o'qituvchi o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida o'quvchining faolligini to'g'ri uyushtira oladi va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili va o'qish savodxonligidan bilimlarni tayyor holda bayon qilish serunum metod sanalmaydi. Chunki bilimlar o'qituvchi tomonidan tayyor holda berilar ekan, o'qituvchi shu jarayonning ishtirokchisiga, tinglovchisiga va faqat andazaga qarab harakat qiluvchiga aylanib qoladi. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarning eng serunumi muammoli o'qitishdir. Biz



boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh hamda umumiy bilim saviyasidan o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'plandi. O'qish savodxonligi - jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Ushbu nuqtayi nazar o'quvchilarning o'qishdan olingan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. O'qish savodxonligining bu ko'rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko'plab o'qish nazariyalarini aks ettiradi. O'quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o'quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o'quvchi ma'noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv inglizcha «construct» yaratmoq deyiladi). O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

Biz o'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilarimizni o'qish savodxonligi bo'yicha eng yaxshi natijaga erishishi uchun o'qishga ijobiy munosabatda bo'lishini ta'minlashimiz kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS- baholash tizimi topshiriqlari asosida badiiy asarni tahlil qilishga harakat qilamiz. 4-sinf kitobida berilgan Xudoyberdi To'xtaboyevning "Erkacholning o'rigi" hikoyasini tahlilga tortamiz. O'quvchilar hikoya matni bilan tanishtirilgach asarning voqealar rivojini mazmun mohiyatini, g'oyasini badiiyatini, shaklini va umumiy xulosasini tahlil asosida o'rganib o'quvchining savodxonlik darajasini aniqlaymiz. O'quvchilar



matnni mazmunini chuqur anglab yetishi uchun har bir so'z mohiyatini anglab yetishi uchun va matndan to'g'ri xulosa chiqarishiga yordam berishi uchun test topshiriqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

1. Asar qahramoniga Erkachol kim bo'lgan?

A) Hamkasbi

B) Bobosi

D) Qo'shnisi.

2. "Qoraqandak" o'rik navi nima uchun bunday atalgan?

A) Quriganda shirasi ko'p bo'lganligi sababli rangi qorayib qolgani uchun

B) Suvli yerda o'sganligi sababli

D) Tog'da o'sganligi sababli

3. O'rik ko'chatini qaysi qishloqdan olib kelishgan?

A) Qashqar

B) Qoraqamish

D) Qorovultepa

4. Nima uchun asar qahramoni tarbiyasi bilan bobosi shug'ullangan?

A) Otasi bilan onasi ajrashganligi sababli

B) Otasi va onasi uzoq safarga ketganligi sababli

D) Otasi olamdan o'tgach onasi boshqa turmush qurganligi sababli

5. O'rik nihollarini ekayotganda orasidan qancha masofa joy qoldirib ekishdi?

A) 8-10 gaz



B) 5-6 gaz

D) 10-12 gaz

6. Qoraqandak o'rigi qanday yerda o'sadi?

A) Faqat suvli yerda o'sadi.

B) Tog' yonbag'irlarida o'sadi.

D) Faqat suvsiz yerda o'sadi.

7. Erkacholning o'rigi haqida gap ketganda nima uchun yozuvchi "Yuragim hapqirib ketdi. Shirin-shirin entika boshladim". deb yozadi?

8. "Sutga to'ymagan qo'zi" iborasi bolaga nisbatan aynan qaysi o'rinda ishlatilgan?

9. "Yaxshidan bog' qoladi" maqolini hikoyaga qanday aloqasi bor?

10. "Meni qanchalik suyib erkalasalar, nihollarni ham to hosilga kirgunicha erkalaganlar" ma'nosini izohlang?

O'qish darslarida o'tiladigan har bir dars davomida o'quvchilarni matn bilan tanishtirish uning asosiy mazmun-mohiyatini ochish, berilgan badiiy asardan to'g'ri xulosa chiqarish va mazmunini chuqur tushunib yetgan holda o'z hayotida amaliyotda kerakli o'rinda foydalana olishga o'rgatishda yuqorida berilgan topshiriqlar yuqori samara beradi. Bunday topshiriqlardan o'qituvchilar har bir darsda foydalanishi lozim.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Foy, P. & Drucker, K. (2023). PIRLS 2026 Assessment Framework. TIMSS & PIRLS International Study Center.



2. UNESCO (2022). Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO Publishing.
3. Karimova, N. (2023). Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish texnologiyalari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. OECD (2024). Digital Learning and Reading Skills. Paris: OECD Publishing.